


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi:  
№ 2214



NAZARIY POETIKA  
FANINING  
ISHCHI O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100000 -Gumanitar soha  
Ta'lif sohasi: 120000 -Gumanitar fanlar  
Mutaxassislik: 5A220101 -Adabiyotshunoslik (tillar va tadqiqot  
yo'nalishlari bo'yicha)

Ma'ruba: 36 soat;  
Amaliyot: 36 soat;  
Seminar: 36 soat.

5A220101-Adabiyotshunoslik (Tillar va tadqiqot yo'nalishlari bo'yicha)  
ta'lif yo'nalishi o'quv dasturi va o'quv rejasiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:


Davronova M. - SamDU "Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot  
nazariyasi" kafedrasi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi.

Taqrizchilar:


Hasanov Sh. - SamDU "Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi"  
kafedrasi mudiri, f.f.d.

Salohiy D. - SamDU "Mumtoz adabiyot tarixi" kafedrasi mudiri,  
f.f.d., professor

Fanning ishchi o'quv dasturi "Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot  
nazariyasi" kafedrasining 2019 yil 3 iyul dagi 12-sonli yig'ilishida  
muhokamadan o'tdi.


Kafedra mudiri Sh. Hasanov  


Fanning ishchi o'quv dasturi fakultet ilmiy kengashida muhokama etilgan va  
foydalanimishga tavsiya qilingan (2019 yil 11 bayonnomada tasdiqlandi).

Fakultet ilmiy kengashi raisi J. Eltazarov  
  


Fakultet uslubiy kengashi raisi M. Abdiyev  


Kelishildi:

O'quv uslubiy boshqarma boshlig'i B. Aliqulov  


## KIRISH

Magistrantlarga adabiyotshunoslik metodologiyasining predmeti, uning maqsad va vazifalarini o'rgatish, fan doirasidagi asosiy masalalarning mazmun mundarijasini tushuntirish, fanning eng muhim qirralari borasida tasavvur hosil qilish, adabiyotshunoslik metodologiyasiga bag'ishlangan ma'ruzalar o'qish o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

"Nazariy poetika" fanida badiiy matnni tahlil va talqin qilish usullari markaziy o'rinda turadi. Bo'lajak adabiyotshunos badiiy asarga yondashuv masallarini bilishi lozim. Fandagi masallari shu jihat bilan dolzarblik kasb etadi. Ushbu fan doirasida adabiyotshunoslikdagi ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari jalb qilinadi. Jamiyatni demokratlashtirish jarayonida va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilishda ushbu fan yoshlarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi va barcha tahlil jarayonlariga ijodiy yondoshishni shakllantirishga yordam beradi.

**O'quv fanining maqsadi va vazifalari.** Mazkur fanni o'qitishning asosiy maqsadi – badiiy asarni tahlil qilish uchun yo'llanma berish, badiiy matnni chuqur va turli metodlar asosida talqin qilish, jahon adabiyotshunosligidagi adabiyotshunoslik metodlarining ichki imkoniyati va cheklanganlik tomonlarini barcha abbiy tur hamda janrlar bo'yicha yozilgan ilmiy asarlar misolida asoslab o'rganish, umuman adabiyotshunosning ilmiy-estetik tafakkurini shakllantirish ushbu fanning asosiy maqsadi sanaladi. Shu ma'noda quyidagi vazifalar muhimdir:

- Nazariy poetikani tushuntirish;
- Nazariy poetikaning tarixi, asosichilari va asosiy ilmiy tamoyillarini o'rgatish;
- badiiy asarni sosiologik metod asosida tahlil yuzaga keladigan ijtimoiy-estetik omillarni tahlil qilish;
- formalizm va vulgar sosiologizm hodisasini tushuntirish;
- Nazariy poetikada ijodiy metodning farqini o'rgatish;
- adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi bilan Nazariy poetika orasidagi mushtarakliklarni talqin qilish;
- germenevtikaning metodologik imkoniyatlarini ochib berish;
- jahon adabiyotshunoslari, rus va o'zbek adabiyotshunoslaring ilmiy metodlarini ani-lashga o'rgatish.
- talabada estetik didni, badiiy so'zni his etish ko'nikmasini hosil qilish;
- adabiy-badiiy va ilmiy-estetik idrokni tahlil va tadqiq etish malakasini hosil etishdan iborat.

**Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar.** "Kadrlar tayyorlashning Milliy dasturi", Davlat ta'lim standartida aks etgan talaba bilimlariga qo'yiladigan talablar asosida shakllantirilgan.

Magistr-talaba ushbu fan doirasida:

- Nazariy poetika tasnifi;
- Nazariy poetika maktablari tarixi;
- badiiy asarni metodlar asosida tahlil qilish usullari;

- badiiy asarga yondashuv usullari;
- Nazariy poetikaning tahlil va talqin tamoyillari;
- badiiy asarni ilmiy-nazariy talqini va tahlili;
- adabiyotshunoslikdagi metodning o'rni, namoyandalari va tarixini tushuntira olish;
- badiiy asarni talqin etish va unga germenevtik munosabat bildirish;
- badiiy asarga psixologik metodni qo'llash jarayonini tushuntira olish;
- badiiy asarni uslubiy tahlil etish;
- badiiy asar talqinidan metodologik xulosalar chiqarish;
- ilmiy fikrlarni muayyan tizim asosida ifodalash;
- ilmiy tahlil va talqinda zamonaviy metodologiyani qo'llay bilish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak***;
- -badiiiy asar metodlari bilan adabiyotshunoslik metodlarini farqlay olish;
- badiiy tahlilda asarning umrboqiylik muammosini anglash;
- uslubiy tahlil jarayonida badiiy matn va yozuvchi uslubi sirlarini aniqlash;
- psixologik tahlil jarayonida ijodkor ruhiyatini aniqlash;
- badiiy tasvir vositalarining metodologik qirralrini farqlay bilish;
- tanlangan mavzu yuzasidan umumlashma ilmiy xulosalar chiqara bilish ***malakalariga ega bo'lishi kerak***.

**Fanning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi.** Mazkur fanning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi –adabiyot nazariyasi, jahon adabiyoti tarixi, estetika, milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar, san'at sosiologiyasi, psixologiya, falsaf fanlarida o'rganiladigan muammolarning umumiyligi bilan bir-biriga bog'langan. Dasturda ko'rsatilgan mavzular ma'ruza, seminar shaklida olib boriladi, shuningdek, fanning dolzarb masalalari talabalarga mustaqil ish sifatida o'zlashtirish uchun beriladi. Fan zamonaviy pedagogik texnologiyaning turli metodlari orqali o'tkaziladi.

**Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni.** Talabalarda adabiyotshunoslik metodologiyasi fani bo'yicha bilimlarni shakllantirish, adabiyotshunoslik metodlarini, badiiy asar metodologik nuqtai nazardan tahlil qilishga doir muayyan bilimga ega bo'lish va ularni amaliyotda tatbiq etish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon bevosita adabiy-ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarda amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar.** «Adabiyotshunoslik metodologiyasi» fanini o'zlashtirishda o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informasion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Dasturda ko'rsatilgan mavzular ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar mashg'ulotlari shaklida olib boriladi, shuningdek, fanning dolzarb masalalari magistr talabalarga mustaqil ta'lim sifatida o'zlashtirish uchun beriladi. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, texnik vositalardan foydalilanadi.

Ma’ruza, amaliy va seminar mashg’ulotlari zamonaviy pedagogik texnologiyaning ilg’or metodlari orqali hamda slaydlar, multimedia namoyishlari bilan o’tkaziladi.

## **Asosiy qism. KIRISH – 2 soat**

Poetika badiiy asarni xususiyatlarini o’rganuvchi fan sifatida e’tirof etilmoqda. Poetikaning xususiyatlarini tahlil qilish bugungi adabiyotshunoslik fanining bir qismi sifatida qayd etilishi. Termin sifatida o’ziga xos xususiyatlarini namoyon etishi. Poetika haqidagi nazariy qarashlarning maydonga kelishi. G’arb adabiyotshunoslidagi tushunchalar yig’indisi. Rus adabiyotida va adabiyotshunoslidagi nazariy mulohazalar.

O’zbek adabiyotshunoslidagi ilmiy - nazariy qarashlar. Keyingi yillar adabiyotshunoslidagi poetika haqidagi mulohazalar. G’arb va Sharq poetik olamidagi turli mulohazalar va ularga munosabat. Bugungi adabiyotshunoslidagi qarashlar.

## **Poetika va uning tarkibiy qismi 12- soat**

Poetika tushunchasining o’ziga xosligi. Poetikaning adabiyotshunoslilik fanlari bilan uzviy birligi. Nazariy mulohazalar: adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid, adabiyot tarixi. Poetikaning o’ziga xos tarkibiy qismlarga bo’linishi. Nazariy poetika. Tarixiy poetika. Bu tushunchalarning G’arb va Sharq adabiyotshunoslidiga ifodalanishi. Poetika bilan bog’liq tushunchalar yig’indisi. Badiiy psixologizm muammosining o’zbek adabiyotida o’rganilishi. Tahlil. Talqin xususiyatlari. Psixologizm va adabiy tanqid. Psixologizm prinsiplari. Dinamik. Tipologik. Analitik. Psixologizm va adabiy janr. Muhit. Xarakter. Psixika. Psixologik vositalar: ichki monolog, nutqiy xarakteristika, psixologik portret, tush va psixologik tahlil. Psixologik tahlil va psixologik tasvir. O.Yoqubovning «Ulug’bek xazinasi» romanida psixologik tasvir. Psixologik vositalar ifodasi.

Asqad Muxtor iste’dodli romannavis. Hayot. Ijod. Mafkura. Xalq va xalqchilik. Sosialistik realizm metodi asosida asar yaratish hamda bir yoqlama talqin va tahlillar. «Chinor» - romanida hikoyatlar. Asardagi polifonik tasvir xususiyatlari. Davr voqyealari talqini va ramziylik. «Davr mening taqdirimda» romani. Syujetda va kompozisiya. Badiiylik mezoni va yozuvchi mahorati.

## **Nasriy asarlar poetikasi–14 soat**

P.Qodirovning zamonaviy romanlarida hayot ziddiyatlarining talqini, qishloq hayotini tavsiri. «Uch ildiz», «Kora ko’zlar», «Olmas kamar» romanlarida obrazlar tizmi. Yozuvchi uslubi va badiiy mahorati. Adibning tarixiy romançilik taraqqiyotidagi hissasi. Tarixiy voqyelik va badiiylik. Tarixiy shaxs obrazini yaratish an’anasi. Badiiy to’qimaning roli. «Yulduzli tunlar» va adabiy tanqid. «Avlodlar davoni».

Odil Yoqubov iste’dodli romannavis. Adibning zamonaviy romanlari. «Diyonat», «Oq qushlar oppoq qushlar» kabi romanlarida obraz yaratish. Shaxs,

jamiyat, tabiat o'rtasidagi dialektik birliklar talqini. Xarakter. Tip. Tipiklashtirish. Yozuvchining tarixiy romanchilikdagi mahorati. «Ko'hna dunyo» romanida syujet yaratish. Yozuvchining hikoya qilishdagi o'ziga xosligi va hikoyachi tiplari. Syujetda afsonaviy unsurlarning o'rni va roli. Asarda qo'llanilgan adabiy mistifikasiya hodisasi. Retrospektiv syujetning voqyealar tabiatiga ko'ra asar bo'ylab o'tishi.

Bu davr nasriy asarlaridagi tasvirda o'ziga xosligi. Uslubiy izlanishlar jarayoni. Xayotning real manzaralarini tasvirlash. Turg'unlik davr vlqyealarini haqqoniy yoritish. «Adolat manzili», «Lolazor», «Otamdan qolgan dalalar» romanlarida shiddatli davr voqyealari tasviri. So'z erkinligi. Demokratik tamoyillar ta'siri. Davr, qahramon, hayot tasviri va ruhiyat.

Keyingi yillar nasrida noan'anaviy talqinlar, uslubiy o'zgarishlar. Qahramon yaratish tamoyillari. Jahon adabiyotidagi an'analar va o'zbek romanchiligidagi o'zgarishlar. Tahlil va talqinlar. Badiiy asar va adabiy tanqidiy qarashlar. T.Rustamning «Kapalaklar o'yini», Xurshid Do'stmuhammadning «Bozor», romanlarida badiiy obraz yaratish noan'anaviy talqin. Romanchilik va adabiy tanqid.

Modernizm tushunchasi. Tahlil. Talqin. Adabiy tanqidiy tushunchalar. Keyingi yillar romanchiligi va modernizm. Romannavis Omon Muxtorning «Ko'zgi oldidagi odam», «Tepalikdagi xaroba», A.Dilmurodning «Fano dashtidagi qush», Abbas Saidning «Ko'chada qolgan odam», U.Hamdamning «Muvozanat», «Isyon va itoat» romanlarida noan'anaviy talqin. Modernizm va o'zbek romanchiligi. Obraz va xarakter yaratish.

Adib ijodining o'ziga xosligi. Obraz yaratishda o'z uslubi. Adib romanlarida badiiy psixologizm. Ruhiy kechinmalar talqini. Qahramonning o'z olamidagi ziddiyatlar talqini. Ruhiy kechinmalar asosida shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar talqini. Yozuvchining keyingi yillar romanchiligidagi o'rni va roli.

### She'riyat poetikasi - 8 soat

She'riy tahlillar. Undagi o'zgarishlar. Yangicha uslubiy izlanishlar. G'arb adabiyotidagi an'analarining ta'siri. Bugungi davr she'riyat. Modernistik she'riyat. Ulardagi ramziy, majoziy talqin. Faxriyr she'riyatida lirik qahramon. Go'zalbegim ijodida noan'anaviy talqin. Oydiniso she'riyatida lirik kechinma. Sharq mumtoz an'analarining bugungi she'riyatda aks etishi. A.Qutbiddin, U.Asim, Farida Afruz kabi. R.Parfi she'riyatida badiiy tasvir. Yangicha yo'naliشدagi she'riyat va adabiy tanqid. She'riyat poetikasi haqidagi U.Normatov, H. Boltaboyev, A.Rasulov, B.Nazarov, N.Rahimjonov, H.Umurov, U.Hamdam kabi adabiyotshunoslarning nazariy mulohazalari. Har bir davr she'riyatining o'ziga xosligi. 60-yillar she'riyatida ramziylik. Davr ruhi. 80-yillar she'riyatida lirik qahramon. 90-yillar she'riyatida G'arb va Sharq an'analar. XXI asr she'riyatida yangicha talqinlar. Tushunchalar, mulohazalar, ba'zi bir yoqlama qarashlar, sabab va xulosalar.

**“Nazariy poetika” fani bo‘yicha ma’ruza mashg’ulotlarning  
kalendor tematik rejasি**

<b>№</b>	<b>Fanning bo’limi va mavzusi, ma’ruza mazmuni</b>	<b>Soat</b>	<b>O’tiladigan muddat</b>
1	Poetika va uning xususiyatlari	<b>2</b>	
2	G’arb adabiyotida petika haqidagi qarashlar	<b>2</b>	
3	Sharq adabiyoti va poetika masalalari	<b>2</b>	
4	XX asr rus adabiyotshunosligi va poetika	<b>2</b>	
5	XX asr o’zbek adabiyotshunosligi va poetika	<b>2</b>	
6	Nazariy poetika va uning xususiyatlari	<b>2</b>	
7	Tarixiy romanlar poetikasi	<b>2</b>	
8	Tarixiy romanlar poetikasi (80-90 yillar)	<b>2</b>	
9	Zamonaviy romanlar poetikasi	<b>2</b>	
10	Noan’anaviy romanlar poetikasi	<b>2</b>	
11	She’riyat poetikasi	<b>2</b>	
12	Noan’anaviy she’riyat poetikasi	<b>2</b>	
13	Poetik tushunchalar taraqqiyoti	<b>2</b>	
14	Poetika va uning xususiyatlari	<b>2</b>	
15	Adabiyotshunoslik taraqqiyoti va nazariy poetika	<b>2</b>	
16	Dramaturgiya poetikasi	<b>2</b>	
17	Hikoyalar poetikasi	<b>2</b>	
18	Qissachilik taraqqiyoti va poetika	<b>2</b>	
<b>Jami:</b>		<b>36</b>	

**Amaliy mashg’ulotlarni tashkil etish bo‘yicha ko’rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg’ulot magistr talabalarni nazriy poetikasiga doir ma’lumotlar bilan mustaqil tanishishga, ularni adabiy asarni metodologik jihatdan tahlil va talqin qilishga yo’naltiradi. Magistr talabalar to’plagan bilimlarini dars vaqtida munozara yoki ma’ruza ko’rinishida himoya qiladi. Amaliy mashg’ulotlarda magistr talabalar nazariy poetikasi fanining o’ziga xos xususiyatlarini, metodlar tarixi, asoschilariga, falsafa bilan metodologiyaning aloqadorligiga doir nazariy poetika masalalarni o’rganadilar.

**Amaliy mashg’ulot uchun tavsiya etiladigan mavzular quyidagicha:**

1. Olamni bilish – falsafiy tushunish;
2. Falsafiy dunyoqarash va nazariy poetika;
3. Nazariy poetika tarixi va poetika masalasi;
4. Bugungi nazariy poetika masalasi;

**“Nazariy poetika” fani bo‘yicha seminar mashg’ulotlarning  
kalendor tematik rejasi**

<b>№</b>	<b>Mavzular</b>	<b>Soat</b>	<b>O’tiladigan muddat</b>
1	Poetika haqida umumiy tushuncha	2	
2	G’arb adabiyotida petika haqidagi qarashlar	2	
3	Sharq adabiyoti va poetika masalalari	2	
4	Bugungi rus adabiyotshunosligi va poetika	2	
5	O’zbek adabiyotshunosligi va poetika	2	
6	Nazariy poetika va uning xususiyatlari	2	
7	“O’tgan kunlar” va “Navoiy” romanlari poetikasi	4	
8	“Sarob” va “Chinor” romanlari poetikasi	4	
9	She’riyat poetikasi (E. Vohidov, A.Orlov, R.Parfi ijodi misolida)	6	
10	Mustaqillik davri she’riyati (U.Asim, Faxriyor, Abduvali Qutbiddin ijodi miolida)	4	
11	Qissalar poetikasi (O’.Hoshimov, Sh.Bo’tayev, N.Eshonqul)	6	
<b>Jami:</b>			<b>36</b>

**“Nazariy poetika” fani bo‘yicha seminar mashg’ulotlarning  
kalendor tematik rejasi**

<b>1</b>	Poetika va uning o’ziga xos tamoyillari	2	
<b>2</b>	Nazariy poetika va uning vazifalari	2	
<b>3</b>	“Yulduzli tunlar”, “Ulug’bek xazinasi” romanlari tahlili	4	
<b>4</b>	“To’rt tomon qibla” asari tahlili	2	
<b>5</b>	“Ufq” romanining badiiy xususiyatlari	2	
<b>6</b>	A.Yo’ldosh, E.A’zam, A.A’zam qissalari tahlili	6	
<b>7</b>	Keyingi yillar she’riyati va modernizm	2	
<b>8</b>	She’riyatda lirik kechinma va qahramon (M.Yusuf, I.Mirzo, A.Qutbiddin)	6	
<b>9</b>	Dramatik asarlar tahlili	4	
<b>10</b>	Zamonaviy qahramon muammosi	2	
<b>11</b>	Keyingi yillar adabiyotida adabiy oqimlar va uslub muammosi	4	
<b>Jami:</b>			<b>36</b>

**Mustaqil ish uchun quyidagi topshiriqlarni bajarish tavsiya etiladi:**

1. F.Dostoyevskiy asarlari poetikasi;
2. L.Tolstoy asarlari poetikasi.
3. K.Poelo asarlari poetikasi.
4. Ch.Dekkins asarlari poetikasi.

5. R.Bart, G.G.Gadamer, A.Morua, Yu.Lotman asarlarini o'qish.
6. V.G.Belinskiy, D.Dobrolyubov, N.Chernishevskiy asarlarini o'qish.
7. Rus adabiyotshunoslari Yu.Borev, M.M. Baxtin asarlarini o'qish.
8. O'zbek adabiyotshunoslari O.Sharafiddinov, M.Qo'shjonov, B.Qosimov, U. Normatov, Sh.Yusupov, N.Karimov, A.Rasulov, N.Komilov, I.G'afurov asarlarini o'qish va tahlil qilish.

**Dasturning informasion-uslubiy ta'minoti.** Dasturdagi mavzularni o'tishda ta'limning zamonaviy metodlaridan keng foydalanish, o'quv jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish samarali natija beradi. Bu borada zamonaviy pedagogik texnologiyalarning «Muammoli ta'lism» texnologiyasining «Munozarali dars» metodidan foydalanish nazarda tutiladi.

#### **Talabalar mustaqil ta'liming mazmuni va hajmi**

<b>№</b>	<b>Ishchi o'quv dasturining mustaqil ta'limga oid bO'lismi va mavzulari</b>	<b>Mustaqil ta'limga oid topshiriq va tavsiyalar</b>	<b>hajmi (soat)</b>
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>5</b>
1.	F.Dostoyeskiy asarlari tahlili	Qiyosiy tahlil qilish	2
2.	L.Tolstoy asarlari tahlili	Matn tahlil misolida mustaqil ish yozish	2
3.	K.Poelo asarlari tahlili	Nazariy poetika masalalarini o'rganish	2
4	Ch.Dekkins asarlari tahlili	Nazariy poetika tushunchalarini asar misolida tahlil etish	2
5.	R.Bart, G.G.Gadamer asarlarini o'qish.	Asarlarning metodlarini aniqlash	2
6.	V.G.Belinskiy, D.Dobrolyubov, N.Chernishevskiy asarlarini o'qish.	Adabiyotshunoslik masalalariga e'tibor	2
7.	Rus adabiyotshunoslari Yu.Borev, M.M. Baxtin asarlarini o'qish.	Poetika masalasiga e'tibor	2
8.	O'zbek adabiyotshunoslari O.Sharafiddinov, M.Qo'shjonov, B.Qosimov asarlari tahlili	O'zbek olimlarining sohadagi faoliyati	2
9	U. Normatov, N.Karimov asarlari tahlili	O'zbek olimlarining nazariy poetika haqidagi qarashlari	2
10	A.Rasulov asarlarini o'qish va tahlil qilish.	O'zbek olimlarning qarashlarini o'rganish	2
		<b>Jami</b>	<b>22</b>

#### **Dasturning informasion uslubiy ta'minoti**

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini qo'llash nazarda tutilgan:

- ma'ruza mashg'ulotlarining mavzulari zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentasiya va elektron-didaktik texnologiyalaridan foydalanilgan holda o'tkaziladi;
- amaliy mashg'ulotlarda aqliy xujum, guruhli fikrlash, "ish o'yini" va boshqa pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi;
- seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlar musobaqalari, guruhli fikrlash pedagogik texnologiyalarini qo'llash nazarda tutiladi.

### **"Nazariy poetika" fanidan talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash mezoni.**

"Adabiyotshunoslik metodologiyasi" fani bo'yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

**joriy nazorat (JN)** – talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg'ulotlarda og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollevium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin;

**oraliq nazorat (ON)** – semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda ikki marta o'tkaziladi va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiylashtirish soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

**yakuniy nazorat (YaN)** – semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "Yozma ish" shaklida o'tkaziladi.

**ON** o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **ON** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **ON** qayta o'tkaziladi.

Oliy ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida **YaN** ni o'tkazish jarayoni muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **YaN** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **YaN** qayta o'tkaziladi.

Talabaning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

"Adabiyotshunoslik metodologiyasi" fani bo'yicha talabalarning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi.

Ushbu 100 ball baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

**Ya.N.-30 ball, qolgan 70 ball esa J.N.-35 ball va O.N.-35 ball qilib taqsimlanadi.**

<b>Ball</b>	<b>Baho</b>	<b>Talabalarning bilim darajasi</b>
86-100	A'lo	Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
71-85	Yaxshi	Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
55-70	Qoniqarli	Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo'lish.
0-54	Qoniqarsiz	Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik. Bilmaslik.

Fan bo'yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabaning saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi.

Talabalarning o'quv fani bo'yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

Talabaning fan bo'yicha reytingi quyidagicha aniqlanadi: , 100 V bu yerda:  $V$ - semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda);  $O'$  -fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

Fan bo'yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to'plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

Joriy **JN** va oraliq **ON** turlari bo'yicha 55bal va undan yuqori balni to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo'yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo'l qo'yildi.

Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to'plagan ballari yig'indisiga teng.

**ON** va **YaN** turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o'tkaziladi. **YaN** semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o'tkaziladi.

**JN** va **ON** nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.

Talabaning semestrda **JN** va **ON** turlari bo'yicha to'plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo'lsa yoki semestr yakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo'yicha to'plagan ballari yig'indisi 55 baldan kam bo'lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.

Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, fan bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan

murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'limgan tarkibda apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyasiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o'quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

#### **Talabalar ON dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari**

<b>Nº</b>	<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>ON ballari</b>		
		<b>maks</b>	<b>1-ON</b>	<b>2-ON</b>
1	Darslarga qatnashganlik darajasi. Ma'ruza darslaridagi faolligi, konspekt daftalarining yuritilishi va to'liqligi.	15	0-7	0-8
2	Talabalarning mustaqil ta'lif topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarishi va o'zlashtirish.	10	0-5	0-5
3	Yozma nazorat ishi yoki test savollariga berilgan javoblar	10	0-5	0-5
<b>Jami ON ballari</b>		<b>35</b>	<b>0-17</b>	<b>0-18</b>

#### **Talabalar JN dan to'playdigan ballarning namunaviy mezonlari**

<b>Nº</b>	<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>JN ballari</b>		
		<b>maks</b>	<b>1-JN</b>	<b>2-JN</b>
1	Darslarga qatnashganlik va o'zlashtirishi darajasi. Amaliy mashg'uotlardagi faolligi, amaliy mashg'ulot daftalarining yuritilishi va holati	15	0-7	0-8
2	Mustaqil ta'lif topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi. Mavzular bo'yicha uy vazifalarini bajarilish va o'zlashtirishi darajasi.	10	0-5	0-5
3	Og'zaki savol-javoblar, kollokvium va boshqa nazorat turlari natijalari bo'yicha	10	0-5	0-5
<b>Jami ON ballari</b>		<b>35</b>	<b>0-17</b>	<b>0-18</b>

Yakuniy nazorat "Yozma ish" shaklida belgilangan bo'lsa, u holda yakuniy nazorat 30 ballik "Yozma ish" variantlari asosida o'tkaziladi.

Agar yakuniy nazorat markazlashgan test asosida tashkil etilgan bo'lib fan bo'yicha yakuniy nazorat "Yozma ish" shaklida belgilangan bo'lsa, u holda yakuniy nazorat quyidagi jadval asosida amalga oshiriladi.

<b>Nº</b>	<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>YaN ballari</b>	
		<b>maks</b>	<b>O'zgarish oralig'i</b>
1	Fan bo'yicha yakuniy yozma ish nazorati	6	0-6

2	Fan bo'yicha yakuniy test nazorati	24	0-24
	<b>Jami</b>	<b>30</b>	<b>0-30</b>

### **Yakuniy nazoratda “Yozma ish”larni baholash mezoni**

Yakuniy nazorat “Yozma ish” shaklida amalga oshirilganda, sinov ko'p variantli usulda o'tkaziladi. Har bir variant 2 ta nazariy savol va 4 ta amaliy topshiriqdan iborat. Nazariy savollar fan bo'yicha tayanch so'z va iboralar asosida tuzilgan bo'lib, fanning barcha mavzularini o'z ichiga qamrab olgan.

Har bir nazariy savolga yozilgan javoblar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi 0-3 ball oralig'ida baholanadi. Amaliy topshiriq esa 0-6 ball oralig'ida baholanadi. Talaba maksimal 30 ball to'plashi mumkin.

Yozma sinov bo'yicha umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo'yilgan o'zlashtirish ballari qo'shiladi va yig'indi talabaning yakuniy nazorat bo'yicha o'zlashtirish bali hisoblanadi.

### **Foydalilaniladigan darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati**

- Ислом Каримов. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор//ЎзАС., 2009, 3 июль.
- Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Т.: O'zbekiston, NMIU, 2017.
- Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Т.: O'zbekiston, NMIU, 2017.
- Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Т.: O'zbekiston, NMIU, 2017.
- O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to`g`risida”gi PF-4947-sonli farmoni/ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami. 2017.
- Ислом Каримов. Мамлакатимизда демократик ислоҳатларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. 2010 йил 12 ноябрь.- Тошкент:Ўзбекистон. 2010. 56 бет.

### **Asosiy adabiyotlar:**

- Бахтин М.М. Литературно-критические статьи. М. 1992.
- Расулов А. Танқид, талқин, баҳолаш. «Фан», 2006.
- Расулов А. Бадиий асарга ёндашув асослари. Филолог-магистрлар учун ўқув қўлланма. Т. 2003
- “Ўзбек адабий танқиди”. Антология. Т., “Turon-iqbol”. 2011.
- Адабиёт назарияси. Икки жилдлик.-Т.: «Фан», 1978-1979.
- Арасту. Поэтика. Аҳлоқи кабир-Т.: «Янги аср авлоди», 2004
- Султонов И. Адабиёт назарияси.-Т.: «Ўқитувчи», 2002.
- Фитрат. Адабиёт қоидалари.-Т.: «Ўқитувчи», 1995.

9. Умurov X. Adabiyet nazariyası. – T., Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashrieti, 2004.
10. Karimov B. Adabiyetshunoслик metodologiyasi. Muhabbir. 2011.

**Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Aristotel. Poetika, T. 2001 й.
2. Atoullo Xusainiy. Badoёul sanoe. -T., Fan, 1981.
3. Vалихўжаев Б. “Ўзбек адабиётшунослиги тарихи” Т., “Ўзбекистон”. 1993.
4. Гадамер Г.Г. Актуальность прекрасного. М. 1991.
5. Гегель. Эстетика, 4 том. М. 1978.
6. Веселовский А.Н. Историческая поэтика. М. 1989.
7. Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение. Л. 1989.
8. Жўрақулов У. Ҳудудсиз жилва. «Фан» 2006.
9. Каримов Б. Абдулла Қодирий: танқид, таҳлил ва талқин. «Фан» 2006.
10. Норматов У. Устоз ибрати. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нashrieti. 2007.
11. Тилаволди Жўраев. Оng oқими модерн. «Фарғона» nashrieti. 2009.
12. Қосимов Б. Миллий уйғониш. «Маънавият». 2002.
13. Қуронов Д. Чўлпон насли поэтикаси. «Шарқ». 2004.
14. Қўшжонов М. Ўзбекнинг ўзлиги. -T. «Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси» nashrieti. 1994.
15. Ҳаққул И. Ижод иқлими. -T. «Фан». 2009.
16. Ҳожиахмедов. Шеърий санъатлари ва мумтоз қофия. “Шарқ”, Т., 1998.

**Elektron manbalar**

23. [www.literature.uz](http://www.literature.uz)
24. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
25. [www.natlib.uz](http://www.natlib.uz)



